

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ARZIMATOV BOBIRMIRZO ZOKIRJON O‘G‘LI

**TURIZM SOHASIDA INVESTITSİYALARNI BOSHQARISHNING
TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati
08.00.13 - Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Arzimatov Bobirmirzo Zokirjon o'g'li

Turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy
mexanizmlarini takomillashtirish 3

Арзиматов Бобирмирзо Зокиржон угли

Совершенствование организационно-экономических механизмов
управления инвестициями в сфере туризма..... 29

Arzimatov Bobirmirzo Zokirjon ugli

Improvement of organizational and economic mechanisms of investment
management in the tourism sector..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ARZIMATOV BOBIRMIRZO ZOKIRJON O‘G‘LI

**TURIZM SOHASIDA INVESTITSİYALARNI BOSHQARISHNING
TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati
08.00.13 - Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt2043 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Abdullajon Topilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "5" 11 kuni soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1796 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75, faks: (99871) 239-28-75; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "15" 10 kuni tarqatildi.

(2025 yil "15" 10 dagi 89 - raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kutubi, i.f.d., professor

A.A. Eshtayev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, avvalambor, investitsiya oqimlarini maqsadli va samarali yo‘naltirish, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishni rag‘batlantirish, hamda xususiy va davlat sektorlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali sohaning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu mexanizmlar orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va yangi turistik hududlarni o‘zlashtirish imkoni yaratiladi, bu esa milliy iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, investitsiya jarayonlarining shaffofligi, monitoringi va xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish ta‘minlanadi, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortishiga va yangi ish o‘rinlari yaratilishiga zamin yaratiladi. Butun jahon turizm tashkiloti (BTT) ma‘lumotlariga ko‘ra, “2024-yilda xalqaro turizmning eksport tushumlari 1,8 trln. AQSH dollariga yetgan bo‘lib, bu pandemiyagacha bo‘lgan 2019 yil ko‘rsatkichlariga yaqinlashgan. 2023 yilda esa turizm sohasidan olingan daromadlar umumjahon yalpi ichki mahsulotining 3%ini tashkil etgan”¹. Mazkur dinamika turizmning global iqtisodiyotdagi strategik rolini va uning barqaror rivojlanishdagi o‘rnini yanada tasdiqlaydi.

Jahonda turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo‘nalishlari turizm infratuzilmasiga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni rag‘batlantirish, davlat-xususiy sheriklik modellarini keng joriy etish, investitsiya muhitini baholash indikatorlarini takomillashtirish hamda raqamli platformalar asosida loyihaviy boshqaruvni avtomatlashtirish masalalariga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqotlarda turizmga investitsiya kiritishda xatarlarni minimallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni prognozlash usullarini takomillashtirish, hududiy rivojlanishga ta‘sir etuvchi investitsiya siyosatining ta‘sirchan modellarini yaratish ham alohida o‘rin tutmoqda. Bu yo‘nalishlar turizm sektorida investitsiya jarayonlarining strategik boshqaruvini ta‘minlashga va global raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida turizm sohasini funksional-tarkibiy qayta tashkil etish, investitsiyalarni jalb qilish hamda qo‘shilgan qiymat ulushini oshirish orqali sohaning iqtisodiy samaradorligini ta‘minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda turistik xizmatlar turlarini diversifikatsiya qilish va jahon bozorida raqobatbardoshlik darajasini oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bunday maqsadlarga erishish yo‘lida mamlakatimizda qator strategik dasturlar ishlab chiqilgan. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, xalqaro va davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish, shuningdek,

¹<https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>

hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, turizm sohasiga zamonaviy investitsiya vositalarini jalb qilish, chet ellik investorlar uchun infratuzilmaviy sharoitlarni yaxshilash, pay va venchur jamg'armalar faoliyatini faollashtirish va portfel investitsiyalar hajmini oshirish orqali investitsiya muhitini takomillashtirish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, sohada maqsadli dasturlar va strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish hamda ularni samarali amalga oshirish masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 12-yanvardagi PF-20-son "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan M.Meskon, U.Sharp, Y.Altman, E.Hotchkiss, R.Makkonell, L.Bryu, A.Kulman, R.Dornbush, R.Shmalenzi, A.M.Benur, N.Evans, D.Campbell, G.Stonehouse, S.U.Lee, J.Kang, A.Athiyaman kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi². Ushbu olimlarning tadqiqotlarida investitsiya, turizm

² Мескон М. Основы менеджмента / М. Мескон, М. Альберт, Ф. Хедоури. – М.: Дело, 2002. – 704 с.; Шарп У.Ф., Александер Г.Дж., Бэйли Дж.В. Инвестиции. – М.: ИНФРА-М, 1999. – 1028 с.; Altman E., Hotchkiss E. (2006) "Corporate Financial Distress and Bankruptcy: Predict and Avoid Bankruptcy, Analyze and Invest in Distressed Debt", John Wiley & Sons; 3rd Edition, 368 p.; Макконнелл, К. Экономика: принципы, проблемы и политика / К. Макконнелл, С.Л. Брю. М.: Экономика, 1992. Т. 2. С. 171.; Кульман А. Экономические механизмы: Пер с франц. М.: Прогресс «Универс», 1993.; Дорнбуш Р., Фишер С. Макроэкономика. М.: ИНФРА-М, 1997.; Шмалензи Р. Экономика. – М.: Изд-во «ДЕЛЮ», 2002. – 355 с.; Benur A.M. Tourism product development and product diversification in destinations / A. M. Benur, B. Bramwell // Tourism management. – 2015. – Vol. 50. – P. 213-224.; Evans N., Campbell D., Stonehouse G. Strategic Management for Travel and Tourism. – Burlington: Butterworth-Heinemann, 2003.; Lee S.U., Kang J. Technological diversification through corporate venture capital investments: creating various options to strengthen dynamic capabilities // Industry and innovations. –

sohasidagi investitsiya jarayonlarining nazariy-uslubiy jihatlari hamda faoliyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida hududlarda turizm sohasini rivojlantirish hamda investitsiyalarni samarali boshqarish jarayonlari S.A.Neshitoy, V.V.Bocharev, D.G.Gazibekov, M.S.Angelidi, V.M.Chinenova, V.P.Popkov, V.P.Semenov, L.L.Igonina, V.V.Chaynikov, D.G.Lapin, R.M.Ivanova, S.M.Xashin, A.Y.Safronov, N.S.Martishenko, Y.Kafiyev, V.Sidorov, A.V.Zemsov, V.B.Doskovskiy, G.L.Arnautov, S.A.Stepanova kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan³. Ushbu tadqiqotlarda MDH olimlari tomonidan turizm sohasida investitsiyalarni boshqarish jarayoni tahlili hamda sohada investitsiyalarni boshqarishning natijaviy kutilmalarini baholash tadqiq etilgan hamda investitsiya loyihalarini moliyaviy baholash usullarini takomillashtirishga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda hududlarda turizm sohasini, jumladan turizm tarkibiy tuzilmalarini rivojlantirish, statistik tahlil qilish, sohada investitsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda turizm sohasidagi investitsiya dasturlarini metodologik rivojlantirish mamlakatimizda M.Q.Pardayev, A.A.Eshtayev, O.H.Hamidov, A.M.Abduvoxidov, M.T.Aliyeva, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, A.N.Norchayev, N.S.Ibragimov, I.A.Ahmedov, X.F.Ochilova, S.Sh.Xalilov, A.T.Mirzayev, S.Salayev, B.Ollanazarov, Sh.Sayfutdinov, B.Dehqonov, B.S.Mamatov, D.Y.Xujamkulov, O.Sh.Nurbekov, F.O'.Dodiye, N.R.Kuziyeva, Z.M.Muxammedova kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁴.

2015. – Vol. 22. – No. 5. – P. 349 – 374.; Athiyaman, A. (1997): Knowledge Development in Tourism: Tourism Demand Reserch, Tourism Management.

³ Нешитой С.А. Инвестиции. Учебник. –М.: Дашков и К. 2007. – С. 15.; Боچارев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. – М.: «Финансы и статистика», 1998. – С. 7.; Газибеков Д.Г., Ангелиди М.С. Инвестиционная деятельность перед вхождением в рыночную экономику. – Т.: ТФИ, 1994. – С. 7.; Чиненова В.М. Инвестиции. Учебное пособие – М.: КНОРУС, 2007. – С. 20.; Попков В.П., Семенов В.П. Организация и финансирование инвестиций– СПб.: Питер, 2001. – С. 22.; Игонина Л.Л. Инвестиции. Уч.пос.– М.: Экономист, 2005. – С.25.; Чайников В.В., Лапин Д.Г. Системная оценка инвестиций в освоение месторождений полезных ископаемых. - Москва, 2008. – 408 с.; Иванова Р.М. Определение туристских ресурсов как основа прикладного исследования туристского потенциала локальной территории // В сборнике: Традиционная и инновационная наука: история, современное состояние, перспективы Сборник статей Международной научно-практической конференции. Ответственный редактор: Сукиасян Асатур Альбертович. 2015. С. 155-158.; Хашин С.М., Сафронов А.Е. Анализ и оценка эффективности инвестиционного проекта в условиях рынка. - Ростов-на-Дону, 2005. – 131 с.; Чайников В.В., Лапин Д.Г. Системная оценка инвестиций в освоение месторождений полезных ископаемых. - Москва, 2008. – 408 с.; Мартышенко Н.С. Маркетинг формирования инвестиционной среды приморского края // Вестник НГИЭИ. 2016. № 7 (62). С. 73-88.; Кафиев Ю., Сидоров В. Время частных инвесторов пришло // Рынок ценных бумаг. 2008. № 6. С. 109.; Земцов, А. В. Оценка эффективности инвестиционного проекта / А.В.Земцов // Банковское кредитование. – 2008. – № 6. – С. 84-98.; Досковский В.Б. Метод оценки проектов по эффективности производства в экономическом обосновании инвестиций / В.Б.Досковский, В.Б.Киселев // Инвестиции в России. – 2015. – № 2. – С. 23-36.; Арнаут Г.Л. Совершенствование организационно-экономического механизма инвестиционной деятельности в промышленности (на примере пищевой отрасли). Автореф. дисс. к.э.н. Киев, 2007. Степанова С.А. Развитие туристского комплекса региона на основе повышения инвестиционной привлекательности туристско-рекреационных территорий: автореф. дис. ... д-ра эк. наук. – Санкт-Петербург: СПбГИЭУ, 2010. С. 9.

⁴ Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. - Samarqand: SamISI, 2006. - 137 b; A.A.Eshtayev. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida) Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2019. – 246 b.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar mamlakatimizda turizm sohasida investitsiyalarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, turizm va boshqa tarmoqlardagi sohaga kiritiladigan multiplikativ samara ta'sirini baholash va hududlarda turizm resurs salohiyatidan optimal foydalanish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Biroq, ular tomonidan turizm sohasini innovatsion rivojlanish istiqbollarini shakllantiruvchi megatrendlarni diagnostik tahlil qilish, sohada investitsiyalarni boshqarish samaradorligi baholash, turizm sohasining investitsiyaviy jozibadorligini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda manzilli dasturlarni ishlab chiqish kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat texnika universitetining "Inson kapitali va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish, iqlim muammolari yechimi xamda resurslar samaradorligi orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishga erishish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turizm sohasida investitsiya faoliyati rivojlanishining nazariy asoslarini va turistik korxonalarda investitsiyalarni boshqarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

услуг Узбекистана: Дисс... канд. экон. наук. -С.: СамИЦИ, 2006. -С.155.; Abdvoxidov A.M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorini tadqiq etish masalalari. //Xalqaro moliya va hisob 1(6). 2020, s. 1-10; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. -Samarqand: SamISI, 2019. -287 b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida).: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. - 265 b.; Safarov B.SH. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - S.: SamISI, 2016. - 254 b.; Norchayev A.N. Xalqaro turizm rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'siri (Ispaniya misolida): Iqt.fan.nomz. diss. - T. 2004. - 136 b.; Ibragimov N.S. Turistik hudud barqaror raqobatbardoshligiga ershishning ilmiy asoslari. DSc. dissertatsiya avtoreferati. - Samarqand, 2021y; M.M.Irmatov, I.A.Axmedov.Turizm rivojlanishini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. TDIU, 2004. -132 b.; X.F.Ochilova. turizm sohasida ta'lim tizimini takomillashtirishning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: TDIU. 2024. - 225-b.; S.SH.Xalilov. Milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: TDIU. 2024. - 212-b.; Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: TDIU. 2021. - 254-b.; Salayev S., Ollanazarov B. Turistik xizmatlar sohasida investitsion faollikni oshirishning ustuvor yo'nalishlari: monografiya. -Urganch: "Quvonchbek-Mashhura" MCHJ nashriyoti. 2020. -188 b.; Sh.Sayfutdinov. O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish strategiyasi. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. -T.: TDIU. 2022 y. - 165-b.; B.Dehqonov. O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. -T.: TDIU. 2024 y. - 154-b.; Mamatov B.S., Xujamkulov D.Y, Nurbekov O.SH. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2014. - S. 52.; Dodiyev F.O'. Investitsion faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent. 1998.-22 b.; Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T., 2008.; Muxammedova Z.M. Turizm investitsiyalar. Monografiya. Samarkand: "SamDCHTI" nashriyoti, 2021. 144 - bet.

O'zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalar jalb etilish holati va soha rivojlanishidagi o'zgarish tendensiyalarini tahlil qilish va omillar ta'sirini baholash; turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning natijaviy kutilmalarini baholash;

turizm sohasida investitsiyalarni boshqarish jarayonlarini modellashtirish va prognozlashtirish;

turizm faoliyatiga investitsiyalar jalb etish va investitsiya loyihalarini moliyaviy baholash usullarini takomillashtirish;

turistik korxonalarda investitsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda turizm sohasidagi tashkilotlar va ulardagi investitsiyalarni boshqarish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib turizm sohasida investitsiyalarni boshqarish jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuyi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida vaziyatli baholash, statistik tahlil va baholash, ekspertlar usuli, statistik guruhlash, tizimli tahlil, SWOT-tahlil, ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "turizm sohasidagi investisiya faoliyati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni turistik infratuzilmani rivojlantirish, servis sifatini oshirish va turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida moliyaviy, intellektual va texnologik resurslarni jalb etish hamda ularni uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayonni hududiy turistik salohiyatni tijoratlashtirish, multiplikativ ta'sirni kuchaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning innovasion investisiya modeli sifatida ilmiy jihatdan qayta asoslash orqali takomillashtirilgan;

turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholashni turizm xizmatlari sifati (0,39), sohaga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi (0,27), mahalliy investorlarning sohaga kiritayotgan investisiya hajmi (0,18), xorijiy investorlarning kiritayotgan investisiya xajmi (0,11), investitsiyalarni kiritish jarayonidagi tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligi (0,01), sohaga kiritilayotgan investitsiyalarning foydaliligi (0,04) ko'rsatkichlari turlariga ko'ra koeffisient vaznlarini ajratish orqali takomillashtirilgan;

turizm infratuzilmasini rivojlantirishda konsessiya shaklidagi davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelidan foydalanish orqali turizm sohasining investisiyaviy jozibadorlikni boshqarish mexanizmi takomillashtirilgan;

O'zbekistonda kirishga oid turizm iste'moli, turizm tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat va turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni kabi ekzogen omillarni kiritish hisobiga turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

investitsiya faoliyatining bosqichlari bo'yicha ijtimoiy takror ishlab chiqarish modeli asoslangan;

turistik korxonalarda investitsiyalarni boshqarish jarayonlari algoritmi ishlab chiqilgan va amaliyotda foydalanish afzalliklari dalillangan;

O'zbekistonda turizm xizmatlari sohasi rivojlanishini ifodalovchi ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlari, turizm industriyasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining o'zgarishi kabi indikatorlarning 2014-2024-yillardagi tahlili va dinamik qatorlardagi o'zgarish tendensiyalari baholangan;

turizm sohasida investitsiya jarayonlarini boshqarish darajalari bo'yicha omillar tasniflangan;

turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishga omillar ta'sirini baholash maqsadida SWOT tahlil amalga oshirilgan va natijalar baholangan;

Farg'ona, Namangan va Toshkent shaharlarida turizm sohasida faoliyat yurituvchi 120 nafar investitsiya faoliyatining ishtirokchilari o'rtasida anketa so'rovnomasi o'tkazilgan va ekspertlar xulosalari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot natijalarining ishonchliligi iqtisodchi olimlarning turizm sohasini rivojlantirish, investisiya jarayonlarini baholash va faoliyatni boshqarish bo'yicha ilmiy qarashlari va usullarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati turizm sohasida investitsiyalarni boshqarish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va tarmoq samaradorligiga ta'sirini baholash bo'yicha mavjud uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan nazariy ko'nikmalarni boyitish hamda kelajakda mazkur yo'nalish bilan bog'liq muammolarni tizimli hal etishga doir maxsus tadqiqot ishlarida foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turizm sohasini rivojlantirish, turistik xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni shakllantirish, sohada investitsiyalarni samarali boshqarishga mo'ljallangan chora-tadbirlari yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy-amaliy xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, hududiy boshqarmalar va mahalliy hokimliklar faoliyatida hamda soha faoliyati bilan bog'liq oliy ta'lim muassasalaridagi tegishli fan yo'nalishi bo'yicha ta'lim jarayonida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "turizm sohasidagi investisiya faoliyati" tushunchasining iqtisodiy mazmunini turistik infratuzilmani rivojlantirish, servis sifatini oshirish va turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida moliyaviy, intellektual va texnologik resurslarni jalb etish hamda ularni uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayonni hududiy turistik salohiyatni tijoratlash, multiplikativ ta'sirni kuchaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning innovasion investisiya modeli sifatida ilmiy jihatdan qayta asoslash orqali takomillashtirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy

ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Xalqaro turizm: nazariya va amaliyot" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrda 485-sonli buyrug'i). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda hududiy turistik salohiyatni tijoratlashtirish, multiplikativ ta'sirni kuchaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning innovasion investisiya modeli sifatida ilmiy jihatdan qayta asoslash orqali takomillashtirilgan "turizm sohasidagi investisiya faoliyati" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

turizm sohasiga investisiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholashni turizm xizmatlari sifati (0,39), sohaga kiritilayotgan investisiyalar hajmi (0,27), mahalliy investorlarning sohaga kiritayotgan investisiya hajmi (0,18), xorijiy investorlarning kiritayotgan investisiya xajmi (0,11), investisiyalarni kiritish jarayonidagi tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligi (0,01), sohaga kiritilayotgan investisiyalarning foydaliligi (0,04) ko'rsatkichlari turlariga ko'ra koeffitsient vaznlarini ajratish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 16-iyuldagi 03-10-17-6469-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida ekspertlar tomonidan turizm sohasiga investisiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlarini 6 turga bir birlik vazn hisobida taqsimlash natijasida eng yuqori turizm xizmatlari sifati ko'rsatkichlari omili 0,39 diapozon hosil qilgan;

turizm infratuzilmasini rivojlantirishda konsessiya shaklidagi davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelidan foydalanish orqali turizm sohasining investisiyaviy jozibadorlikni boshqarish mexanizmi takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 16-iyuldagi 03-10-17-6469-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm sohasida konsessiyalar asosida investision jozibadorlikni oshirish asosida iqtisodiy samaradorlik 12-14%ga ortgan;

O'zbekistonda kirishga oid turizm iste'moli, turizm tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar, sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat va turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni kabi ekzogen omillarni kiritish hisobiga turizm industriyasida kiritilgan investisiyalar hajmining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 16-iyuldagi 03-10-17-6469-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm sohasi va uning tarkibiy tuzilmalarini hamda sohaga kiritilayotgan investisiyalarni samarali boshqarish

dasturlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish vazifalarini optimal tashkil etish aniqligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 31 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 14 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 4 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda hamda 17 ta ma'ruza tezislari ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning umumiy hajmi 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida turizm sohasida investitsiya faoliyati rivojlanishining nazariy asoslari, turistik korxonalarda investitsiyalarni boshqarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda hududlarda turizm sohasi rivojlanishiga innovatsion yondashuvlar yoritilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishida investitsion jarayonlar rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatgani holda iqtisodiyotning texnik-texnologik holatini raqobatbardosh darajada barqaror saqlab turish, hukumatimiz tomonidan o'tkaziladigan investitsion siyosatni sifat jihatidan rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish, investitsion va tadbirkorlik iqlimini, xususan, milliy iqtisodiyotning strategik sektori bo'lgan turizm sohasida tubdan yaxshilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan tezkor o'zgarishlar, yangilanishlar va rivojlanishlar har bir davlatdan faol iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan samarali islohotlarni amalga oshirish va uni takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bunday yuqori darajadagi e'tibor va mas'uliyatni talab etgan holda olib boriladigan ichki hamda tashqi siyosatda milliy iqtisodiyotning ustuvor strategik manfaatlarini joriy davr va uzoq istiqbolda ham ro'yobga chiqarish shuningdek himoyalashga erishish keng ko'lamli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish bilan ta'minlanadi, biroq, bu tadbirlarni iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga ichki hamda tashqi sarmoyalarni faol jalb etmasdan turib amalga oshirib bo'lmashligini nazarda tutsak, jahonda investitsiyalar iqtisodiyotning bugungi barqarorligi va jadal o'sishini

ta'minlovchi bosh omil sifatida e'tirof etilayotganligi bejizga emasligini anglash mumkin.

Turli iqtisodiy adabiyotlarda "investitsiya faoliyati" tushunchasi mazmun-mohiyatiga turlicha ta'riflar berilgan. Ularni chuqur va keng tadqiq etib o'tgan holda, investitsiya faoliyati mazmuniga berilgan quyidagi ta'riflarga alohida to'xtalib o'tishni lozim.

Iqtisodchi olim Neshitoyning fikricha, "Investitsion faoliyat – bu daromad olish va foydali samaraga erishish maqsadida mablag'larni joylashtirish (investitsiyalash) va amaliy harakatlarni amalga oshirish yig'indisidir"⁵ - deb ta'rif bergan.

Bunga o'xshash ta'riflarni yana quyidagi iqtisodchi olimlar talqinida ham ham ko'rish mumkin. Jumladan, Rossiyalik iqtisodchi – olim V.Bocharevning fikricha: "Investitsiya faoliyati – davlat, fuqarolar va huquqiy shaxslarning investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlari yig'indisi"⁶ni anglatadi. Mualliflar A.Arzimiyana va boshqalar: "Investitsiya faoliyati investitsiya qo'yish yoki investitsiyalash hamda investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlar yig'indisi"⁷, deb ta'riflaydi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan M.Angelidi va D.G'ozibekovlar ham investitsiya faoliyatini yuqorida berilgan ta'riflarga yaqin ifodalagan⁸. Ushbu ta'riflarning barchasida investitsiya faoliyatiga mazmunan bir xil tarzda yondashilgan bo'lib, ular investorlarning investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarini aks ettirganlar.

Turizm sohasini rivojlantirishda investitsiya faoliyatining ijtimoiy takror ishlab chiqarilishini quyidagi bosqichlarga bo'lib aniqlash maqsadga muvofiq:

1-bosqich. Soha investitsiya faoliyati ob'ektlarini, ya'ni investitsiya tovarlarini qurish, sotib olish, qayta qurish, zamonaviylashtirish va shu kabi usullar orqali yaratish amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayoni;

2-bosqich. Jamiyatning har bir a'zosining yaratilgan investitsiya tovaridagi ulushi, miqdori va ishtirok etish nisbatlari aniqlanadigan taqsimlash jarayoni;

3-bosqich. Ayirboshlash jarayoni investitsiya tovarlarining turizm tarmoqlari, hududlar va shu kabilar bo'yicha bir sub'ektdan boshqasiga o'tish jarayoniga keltirib chiqariladi;

4-bosqich. Turizm sohasi faoliyatning turli tarmoqlarida daromad (samara) olish maqsadida investitsiya mahsulotlaridan foydalanish jarayoni sodir bo'ladigan iste'mol jarayoni.

Investitsiya faoliyatni boshqarish turistik korxonani boshqarishning umumiy iqtisodiy tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U o'ziga xos maqsad va tamoyillarga ega bo'lib, muayyan vazifalarni bajaradi. Investitsion faoliyat ishlab chiqarishni rivojlantirish, uni texnologik jihatdan takomillashtirish, foyda olish va kapital ko'paytirishga qaratilgani sababli, investitsiya faoliyatni boshqarish turistik korxonalarni boshqarish tizimining kichik tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bu

⁵ Нешитой С.А. Инвестиции. Учебник. –М.: Дашков и К, 2007. – С. 15.


⁶ Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. – М.: «Финансы и статистика», 1998. – С. 7.

⁷ Арзимияна и др. Большой экономический словарь. – М.: «Правовая культура», 1994. – С.157.

⁸ Газибеков Д.Г, Ангелиди М.С. Инвестиционная деятельность перед вхождением в рыночную экономику. – Т.: ТФИ, 1994. – С. 7.

kichik tizim investitsion jarayonlar va turistik korxonaning butun faoliyati samaradorligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan.

Turizm sohasini innovatsion o'zgartirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash eng muhim vazifalardan biri sifatida qabul qilingani bois, turizm sohasini rivojlantirish istiqboliga eng katta ta'sir ko'rsatadigan global tendensiyalar tahlil qilinadi. Umumiy raqamlashtirish, kengaytirilgan ma'lumotlar bazasini yaratish, turistik xizmatlar va mahsulotlar iste'molini qayta ko'rib chiqish, ijtimoiy institutlar transformatsiyasi, demografik o'zgarishlar kabi ustuvor yo'nalishlarni umumlashtirigan holda sohani innovatsion rivojlanish istiqbollari shakllantiradigan megatrendlar tasnifi keltirildi (1-rasm).



1-rasm. Turizm sohasini innovatsion rivojlanish istiqbollari shakllantiruvchi megatrendlar⁹

Yuqoridagi turizm sohasini innovatsion rivojlanish istiqbollari shakllantiruvchi megatrendlar tasnifidan kelib chiqib, global tendensiyalarning

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

birinchi ikkitasi (“To‘liq raqamlashtirish” va “Takomillashtirilgan voqelik”) Sanoat 4.0 texnologik imperativlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, texnologik innovatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Qolgan tendensiyalar esa global texnologik inqilobning ijtimoiy oqibati sifatida ijtimoiy o‘zgarishlarga yo‘naltiriladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalar jalb etilish holati va sohada boshqaruv mexanizmlarini baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalar jalb etilish holati va soha rivojlanishidagi o‘zgarish tendensiyalari, turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili hamda turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning natijaviy kutilmalarini baholash amalga oshirilgan.

Turizm sohasiga investitsiya resurslarni jalb etishda sohaning iftisodiy samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etishda 2 xil muhim yondashuvni alohida tasniflash kerak. Birinchidan, turizm sohasi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida iqtisodiyotning deyarli barcha soha va tarmoqlariga, ularning holati va rivojlanish sur‘atlariga bevosita va bilvosita, u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi. U asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni shakllantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi va ularning dinamikasini belgilashda faol ishtirok etadi. Ikkinchidan, turizm sohasining o‘zi milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog‘i va uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida barcha tarmoq va sohalarning kuchli ta’siri ostida, ularning bevosita yordami vositasida amal qiladi va rivojlanadi, o‘z oldida turgan maqsad va murakkab vazifalarni bajaradi.

2014-2024 yillar davomida O‘zbekistonda turizm sohasi jiddiy o‘sishga erishdi va mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Ushbu davrda sohaning iqtisodiy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanib, mamlakatga kelayotgan sayyohlar soni va turizmdan tushayotgan daromadlar ortdi. 2014-2024 yillar kesimida turizm tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini statistik tahlil qilganimizda, 2014 yilda turizm tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya xajmi 4248,6 mlrd.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024 yil yakuniga kelib 21487,1 mlrd.so‘mni tashkil qilgan va ushbu ko‘rsatkichini tahlil qilishda 2014 yilni bazis yil sifatida tanlab olib taqqoslaganimizda 2024 yilga nisbatan 405,7 foizga o‘sgan, faoliyat ko‘rsatayotgan turistik firma va tashkilotlar soni 2014 yilda 343 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 457 taga yetgan va bazis yil 2014 yilga nisbatan 33,2 foizga o‘sgan, turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat 396,4 foizga, kirishga oid turizm iste’moli hajmi 331,1 foizga va turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni esa 43,1 foizga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

**Turizm sohasining 2014-2024 yillar oralig'idagi asosiy iqtisodiy
ko'rsatkichlari¹⁰**

Yillar	Turizm sohasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm	Faoliyat ko'rsatayotgan turistik firma va tashkilotlar soni, birlik	Turizm sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat, mlrd. so'm	Kirishga oid turizm iste'moli hajmi, mlrd.so'm	Turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni, kishi
2014	4248,6	343	9845,4	4546,7	227475
2015	5492,3	398	13892,4	6256,3	191143
2016	6387,2	433	18654,2	7945,8	152616
2017	8265,4	449	20178,9	8975,7	167394
2018	9546,7	502	22954,6	10854,6	224796
2019	10037,7	517	24742,7	11639,3	348731
2020	8158,9	357	22903,6	2489,9	21693
2021	8243,3	378	31988,2	4492,9	44419
2022	11538,8	395	43426,6	17776,7	93825
2023	15645,4	436	48875,7	19592,8	325468
2024	21487,1	457	53682,3	26654,2	583426

O'zbekiston Respublikasida turizm industriyasiga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasiga ko'ra, sohaga kiritilgan investitsiyalar xajmi 2024 yilda 736,4 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2023 bazis yil bilan taqqoslaganimizda 485,9 mlrd.so'mga oshib, o'tgan yilga nisbatan o'sishi 272,5 foizni tashkil qilgan. Kiritilgan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibidagi ulushi 2014 yilda 0,02 foizni tashkil qilib, 2022 yildan ushbu ko'rsatkich o'sishi sezilarli darajada ortishni boshlagan, ya'ni 2022 yilda 0,05 foiz, 2023 yilda 0,07 foiz va 2024 yilda 0,15 foizni tashkil qilgan. Kiritilgan investitsiyalarning YAIMga nisbatan ulushi 2024 yilda 0,051 foizni tashkil qilib, bazis 2023 yilga nisbatan 0,03 foiz punktga o'sganini kuzatish mumkin (2-jadval).

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, 2014-2024 yillarda mamlakatimizning barcha hududlarida turistik sohasida yaratilgan turizm xizmatlari hajmining barqaror ravishdagi o'sish tendensiyasiga erishilgan.

Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish va tavsiflash ularning uzoq va qisqa muddatli istiqbolda sohaning rivojlanishiga ta'sirini baholashga imkon beradi, shuningdek, sohani turli darajalarda rivojlantirish siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, rivojlanishni strategik va taktik rejalashtirish sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishga omillar ta'sirini baholash maqsadida jarayonning kuchli va zaif tomonlari, sohani rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar va xatarlarni aniqlashga yordam beruvchi SWOT tahlil amalga oshirildi.

Tahlil matritsasidagi bo'laklarda joylashgan omillarning bir-biri bilan kesishuvi asosida SWOT tahlil kesishuv matritsasini hosil qilgan holda uning ustun

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

qismiga sohani rivojlantirishning kuchli va zaif tomonlarini, satr qismiga esa mavjud imkoniyatlar va xatarlarni joylashtirilsa, aniqlangan omillar bo'yicha kesishuv matritsasidagi omillar baholari asosida omilli tahlillar modellarini tuzish va omillarni baholash imkoniyatiga ega bo'linadi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida turizm industriyasiga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasi¹¹

Yillar	Kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'mda	O'tgan yilga nisbatan o'sishi, foizda	Kiritilgan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibidagi ulushi, foizda	Kiritilgan investitsiyalarning YaIMga nisbatan ulushi, foizda
2014	8,9	103,4	0,02	0,005
2015	10,2	106,0	0,02	0,005
2016	29,0	255,4	0,06	0,011
2017	10,9	31,4	0,02	0,003
2018	42,1	288,8	0,03	0,009
2019	75,1	155,9	0,04	0,013
2020	83,2	99,0	0,04	0,012
2021	36,8	40,0	0,02	0,004
2022	130,0	318,2	0,05	0,013
2023	250,5	178,6	0,07	0,021
2024	736,4	272,5	0,15	0,051

Tadqiqot jarayonida respublikamizning uchta shahar hududi (Farg'ona, Namangan va Toshkent shaharlari) da tanlov asosida turizm sohasida faoliyat yurituvchi 120 nafar investitsiya faoliyatining ishtirokchilari (45 nafar yuridik shaxslar, 75 nafar jismoniy shaxslar) orasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma o'tkazishdan asosiy maqsad – yuqorida biz tomonimizdan taklif etilayotgan hududning turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi bo'yicha umumlashgan ko'rsatkichini aniqlash formulasidagi vazn koeffitsienti qiymatini aniqlashdan iborat.

O'tkazilgan so'rovnomada respondentlarga har 6 ko'rsatkichning hududda turizm sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni ta'minlash ahamiyati va turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning samaradorlik darajasidan kelib chiqqan holda ko'rsatkichning ahamiyatini 100 balli shkaladan kelib chiqib 5 ta oraliqda baholab berish so'raldi.

O'tkazilgan so'rovnomada hududlardagi turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko'rsatkichlar variatsiyasi turlicha bo'lgan va ushbu ko'rsatkichlarni umumlashtirish asosida yuqorida ko'rib o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlarining vazn qiymati aniqlashtirildi (3-jadval).

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Fargʻona, Namangan va Toshkent shaharlarida turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi vazn koeffitsienti ahamiyati boʻyicha oʻtkazilgan soʻrovnoma natijalari¹²

Ko'rsatkichlarning ahamiyati chegarasi (100 balli shkala asosida)	Respondentlar soni		
	Jami (120 nafar)	Shundan	
		Yuridik shaxslar (45 nafar)	jismoniy shaxslar (75 nafar)
Turizm xizmatlari sifati ko'rsatkichlarining ahamiyatini qanday baholaysiz?			
80-100 ball	20	6	14
60-80 ball	30	9	21
40-60 ball	57	24	33
20-40 ball	10	4	6
0-20 ball	3	2	1
Ko'rsatkich bo'yicha umumiy vazn	0,39	0,37	0,41
Sohaga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi ko'rsatkichlari ahamiyatini qanday baholaysiz?			
80-100 ball	11	2	9
60-80 ball	18	4	14
40-60 ball	34	13	21
20-40 ball	48	19	29
0-20 ball	9	7	2
Ko'rsatkich bo'yicha umumiy vazn	0,27	0,25	0,29
Mahalliy investorlarning sohaga kiritayotgan investitsiya xajmi ko'rsatkichlari ahamiyatini qanday baholaysiz?			
80-100 ball	4	1	3
60-80 ball	11	2	9
40-60 ball	27	11	16
20-40 ball	46	18	28
0-20 ball	32	13	19
Ko'rsatkich bo'yicha umumiy vazn	0,18	0,19	0,17
Xorijiy investorlarning kiritayotgan investitsiya xajmi ko'rsatkichlari ko'rsatkichlari ahamiyatini qanday baholaysiz?			
80-100 ball	3	1	2
60-80 ball	8	1	7
40-60 ball	22	9	13
20-40 ball	49	20	29
0-20 ball	38	14	24
Ko'rsatkich bo'yicha umumiy vazn	0,11	0,09	0,13
Investitsiyalarni kiritish jarayonidagi tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlari ahamiyatini qanday baholaysiz?			
80-100 ball	0	0	0
60-80 ball	5	1	4
40-60 ball	15	4	11
20-40 ball	30	12	18
0-20 ball	70	28	42
Ko'rsatkich bo'yicha umumiy vazn	0,01	0,01	0,01
Sohaga kiritilayotgan investitsiyalarning foydalilik ko'rsatkichlari ahamiyatini qanday baholaysiz?			
80-100 ball	1	0	1
60-80 ball	9	2	7
40-60 ball	19	7	12
20-40 ball	32	13	19
0-20 ball	59	23	36
Ko'rsatkich bo'yicha umumiy vazn	0,04	0,03	0,05

¹² Jadval maʼlumotlari oʻtkazilgan soʻrovnoma natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

So‘rovnoma natijalarini qayta ishlash jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining Farg‘ona viloyatida faoliyat olib boruvchi yetakchi mutaxassis (ekspert)lar xulosalari asosida turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi koeffitsientining vaznlari aniqlandi va ushbu koeffitsient vaznlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi koeffitsientlari vaznlari¹³

Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari turi	Koeffitsientlar vazni
Turizm xizmatlari sifati ko‘rsatkichlari	0,39
Sohaga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi ko‘rsatkichlari	0,27
Mahalliy investorlarning sohaga kiritayotgan investitsiya xajmi ko‘rsatkichlari	0,18
Xorijiy investorlarning kiritayotgan investitsiya xajmi ko‘rsatkichlari	0,11
Investitsiyalarni kiritish jarayonidagi tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari	0,01
Sohaga kiritilayotgan investitsiyalarning foydalilik ko‘rsatkichlari	0,04

Yuqorida tahlil qilingan jarayonlardan kelib chiqib, so‘rovnoma o‘tkazilgan Farg‘ona, Namangan va Toshkent shaharlaridagi respondentlarning turizm sohasida investitsiyalarni boshqarish samaradorligining hududiy umumlashgan ko‘rsatkichini (1)-formula asosida quyidagicha aniqlash mumkin:

$$F_0 = 0,39F_1 + 0,27F_2 + 0,18F_3 + 0,11F_4 + 0,01F_5 + 0,04F_6 \quad (1)$$

Umuman olganda, turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholash quyidagilarga ega bo‘lish imkonini beradi:

- turistik korxonalarining mulklarini boshqarish va turistik xizmatlar va mahsulotlarni yetkazib berish sifati bo‘yicha faoliyat samaradorligini aniqlash;
- taqdim etilayotgan turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligini muntazam baholab borish sohadagi lider turistik korxonalarni aniqlash va qolgan turistik korxonalar faoliyati maqsadli parametrlarini ushbu turistik korxonalar ko‘rsatkichlari asosida rejalashtirish;
- yaratilayotgan turistik xizmatlar va mahsulotlardan to‘liq qoniqish hosil qilishda asosiy o‘rin tutadigan iste‘molchi va turistik korxona o‘rtasidagi teskari aloqani shakllantirish;
- turistik korxonalarda xizmatlar sifatini yaxshilash va qo‘llab-quvvatlash jarayoni samaradorligini oshiruvchi tadbirlarni belgilash va amalga oshirish.

Har bir darajaning tahlilini turizm sohasiga ta‘sirini hisobga olgan holda baholash ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish va hisoblash asosida o‘tkaziladi. Buning natijasida har bir darajadagi rivojlanish indeksleri turizm sohasini boshqarishning investitsion jozibadorligining integral indeksi olinadi. Bu indekslar uchta yo‘nalishni miqdoriy va sifat jihatdan baholash asosida, ularning xususiy

¹³ Jadval ma‘lumotlari o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

jozibadorlik indeksleri bo'yicha va har bir yo'nalishning ahamiyatini hisobga olgan holda hisoblanadi.

Turizm sohasini rivojlantirishning investitsiyaviy boshqaruv jozibadorligi integral indeksi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$IIP_{PT} = \left(\sum ad + \sum xd \right) + \left(\sum bd + \sum yd \right) + \left(\sum cd + \sum zd \right) \xrightarrow{\max} 100\%$$

Bu yerda, IIP_{PT} - turizm sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni boshqarish samaradorligi integral indeksi;

a- turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan davlatning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (makrodaraja);

x- turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan davlatning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (makrodaraja);

b- turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan hududning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (mezo daraja) (umumiy tarmoq ko'rsatkichi);

y- turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan turistik korxonaning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (mezo daraja) (turizm ko'rsatkichi);


c- turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan turistik korxonaning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (mikrodaraja) (turizm sanoati ko'rsatkichi);

z- turizm sohasini boshqarish nuqtai nazaridan turistik korxonaning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichi (mikrodaraja) (turistik korxonalar ko'rsatkichi);

d- har bir ko'rsatkichning salmog'i.


Turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalarni boshqarish bir qancha omillarini hisobga olgan holda baholanadi. Bu investitsiyalarni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlarni ekspertlar balli tizimda baholaydilar va shu asosda boshqaruv samaradorligini ma'lum toifalarga bo'lgan holda, ta'sir darajasi o'rganiladi. Ekspertlar fikriga ko'ra turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalarni boshqarishning yuqorida keltirilgan matematik ifoda bo'yicha hisob-kitob natijasida erishishi mumkin bo'lgan eng yuqori qiymat 100 foizga teng. Bunday holda, turizm sohasini samarali boshqarishning investitsion jozibadorlik ko'rsatkichi namunali hisoblanadi, bu esa sayyohlik korxonasida mazkur ko'rsatkichning eng yuqori darajasiga erishilganligini anglatadi.

Taklif etilayotgan ilmiy-uslubiy yondashuvga ko'ra, turizm sohasini joriy etishning maqsadga muvofiqligini baholash uchun Farg'ona viloyatining 10 ta Fresh tour, Dilrabo travel, Mandarin, Brend travel, Xurmo travel, Trip tour, Limon tour, Mascan travel, Kadrus vip travel, Fun sun Fergana turistik korxonalari tanlab olindi. Ushbu turistik korxonalarning turizm ob'ektlari sifatidagi investitsion jozibadorligi baholandi (2-rasm).



2-rasm. Turizm sohasini boshqarish uchun Farg‘ona viloyati turistik korxonalarini investitsion jozibadorligi integral ko‘rsatkichining ahamiyati¹⁴

Mikrodarajada turizm sohasini boshqarish jozibadorligi indeksini hisoblash 5 ta sayyohlik korxonasi faoliyatini tahlil qilishni o‘z ichiga olgan: LYUKS TUR sayohat agentligi, RADIUS TRAVEL MCHJ, TRAVEL ADVISOR sayohat agentligi, TALISMAN TOUR MCHJ, SOFIA TRAVEL MCHJ sayyohlik agentliklari (3-rasm).



3-rasm. Turizm sohasini boshqarish uchun Farg‘ona viloyatining sayyohlik korxonalariga investitsiya kiritish jozibadorligining umumiy ko‘rsatkichi ahamiyati¹⁵

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hisob-kitob natijalari shuni ko'rsatdiki, tanlab olingan deyarli barcha turistik korxonalar (Limon tour turistik firmasidan tashqari) yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, turizm sohasini rivojlantirish orqali diversifikatsiya strategiyasini joriy etish bo'yicha faoliyatda jiddiy o'zgartirishlar talab qilmaydi. Eng yirik sayyohlik korxonalari LYUKS TUR sayohat agentligi va RADIUS TRAVEL MCHJ esa Farg'ona viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga qodir ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida turizm sohasida investitsiyalarni boshqarish jarayonlarini modellashtirish va faoliyatni boshqarish istiqbollari, Turizm faoliyatiga investitsiyalar jalb etish va investitsiya loyihalarini moliyaviy baholash usullarini takomillashtirish hamda turistik korxonalarda investitsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar asoslangan.

Turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari – bu turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sarmoyalarni jalb qilish, ulardan samarali foydalanish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan tizimli boshqaruv usullari va vositalarining majmuasidir.

Bunday mexanizmlarni takomillashtirish turizm tarmog'ining iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, hududiy investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish va raqobatbardosh turistik muhitni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy nuqtai nazardan, ushbu mexanizmlarni quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tasniflash mumkin. Birinchidan, maqsadga yo'naltirilganlik mezonini bo'yicha investitsiyalarni boshqarish mexanizmlari strategik va taktik turlarga bo'linadi. Strategik mexanizmlar uzoq muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo'naltirilsa, taktik mexanizmlar qisqa muddatli samaradorlikka erishish uchun mavjud turistik obyektlarni rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan.

Turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish — bu investitsiya jarayonlarini strategik yo'naltirish, innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish orqali turizm tarmog'ini barqaror va raqobatbardosh rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tizimdir.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmokda. Ayniqsa, keng qo'lamli islohotlar doirasida turizmni innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda investitsiyalarni tez sur'atlar bilan rivojlantirish va ushbu sohani milliy iqtisodiyotning ustun rivojlangan istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylantirish alohida muhim ahamiyat kasb etadi¹⁶.

¹⁶ Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - S.: SamISI, 2016. - 254 b.

Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi o'zgarishini endogen omil sifatida olgan holda uning asosiy omil (resurs)lar ta'sirida o'zgarishi bo'yicha ko'p omilli tahlil amalga oshirildi. Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmini natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarini soha mutaxassislarining yetakchi ekspertlari ishtirokida o'tkazilgan ekspert tahlili asosida tanlangan X_1 – kirishga oid turizm iste'moli hajmi, X_2 –turizm sohasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, X_3 – turizm sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat va X_4 – turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni kabi ko'rsatkichlar tanlandi (5-jadval):

5-jadval

Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari¹⁷

Yillar	Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'mda (Y)	Kirishga oid turizm iste'moli hajmi, mlrd.so'm (X_1)	Turizm tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm (X_2)	Turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat, mlrd. so'm (X_3)	Turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni, kishi (X_4)
2014	8,9	4546,7	4248,6	9845,4	227475
2015	10,2	6256,3	5492,3	13892,4	191143
2016	29,0	7945,8	6387,2	18654,2	152616
2017	10,9	8975,7	8265,4	20178,9	167394
2018	42,1	10854,6	9546,7	22954,6	224796
2019	75,1	11639,3	10037,7	24742,7	348731
2020	83,2	2489,9	8158,9	22903,6	21693
2021	36,8	4492,9	8243,3	31988,2	44419
2022	130,0	17776,7	11538,8	43426,6	93825
2023	250,5	19592,8	15645,4	48875,7	325468
2024	736,4	22563,4	18975,6	52146,2	478645

Ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko'ra ushbu jarayonni ifodalovchi regressiya tenglamasi ishlab chiqildi.


$$\ln Y = -0,84 \cdot \ln X_1 + 1,9 \cdot \ln X_2 + 1,6 \cdot \ln X_3 + 0,4 \cdot \ln X_4 - 26,3 \quad (3.1)$$

Chiziqli logarifmik model potensirlanib turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmini ifodalovchi chiziqsiz ko'rinishdagi ekonometrik modelga keltirib olindi:

$$Y = \frac{X_2^{1,9} \cdot X_3^{1,6} \cdot X_4^{0,4}}{X_1^{0,84} \cdot e^{26,3}} \quad (3.2)$$

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Ko‘p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmining o‘rta muddatda, ya’ni 2014-2030 yillarda o‘zgarishi qiymatlarini grafik ko‘rinishi ifodalandi (4-rasm).




4-rasm. Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi ko‘rsatkichining 2014-2030 yillarda o‘zgarishi¹⁸, mlrd so‘m (2025-2030- yil prognoz ko‘rsatkichlari)

Yuqorida ishlab chiqilib amaliyotda foydalanish uchun taklif etilayotgan model va shu kabi ssenariylardan foydalanishda turizm xizmatlari faoliyatida foydalanish asosida turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmini oshirish nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslar (ekzogen omillar) hajmini har bir birlik qo‘shimcha kiritilayotgan resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash sohada turistik xizmatlar eksporti hajmini optimal ta’minlash imkonini beradi hamda turizm faoliyatini muvozanatlashgan holda barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Turizm industriyasida investitsiya hajmining dinamikasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari, davlat siyosatida turizmga berilgan ustuvor yo‘nalishlar va global bozordagi tendensiyalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. 2014–2030 yillar davridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur ko‘rsatkichlar turli bosqichlarda sifat jihatdan turlicha tendensiyalarni namoyon etgan.

Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmining 2014–2030 yillardagi o‘zgarishi milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining rivojlanishi va innovatsion boshqaruv modellarining joriy etilishi natijasida barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etgan.

¹⁸ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.



5-rasm. Konsessiyalar asosida turizm sohasining investitsiyaviy jozibadorlikni boshqarish mexanizmi¹⁹

¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizm sohasining investitsion jozibadorlikni oshirish mexanizmini ishlab chiqish natijasi qo‘shimcha sayyohlik oqimlari hajmini ko‘paytirish bilan bog‘liq bo‘lib, investitsion loyihalarni amalga oshirish xatarlarini hisobga oladi. Ichki turizmni rivojlantirishning strategik vazifalarini bajarishda investitsion cheklovlarni bartaraf etish uchun konsessiyalar (**konsessiya** lot. Concessio - ruxsat, yon berish — xo‘jalik yuritish va chet el kapitalini jalb qilish shakli, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yoki tiklash, tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish maqsadida davlat yoki mahalliy hokimiyat idoralariga qarashli yer uchastkalari, qazilma boyliklar, korxonalar va boshqa xo‘jalik ob‘ektlarini muayyan muddatga va shartlar bilan foydalanish uchun chet el kapitali (davlat, firma, xususiy shaxs) ga berish haqidagi shartnoma yoki kelishuv) shaklida investitsion hamkorlikdan foydalanishga asoslanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida turizm sohasida konsessiyalar asosida investitsion jozibadorlikni oshirish mexanizmi taklif etildi (5-rasm).

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda **konsessiyalar** davlat va xususiy sektor hamkorligi uchun samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Davlat o‘z mulkini xususiy investorlarga uzoq muddatli foydalanish huquqini taqdim etib, ulardan infratuzilmani yangilash va rivojlantirishni talab qiladi. Bu jarayonda investitsiyaviy jozibadorlikni boshqarish mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Dissertatsiya ishini bajarish davomida ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotida investitsiya jarayonlari rag‘batlantiruvchi omil sifatida muhim rol o‘ynaydi. Xususan, iqtisodiyotning texnik va texnologik rivojlanishini raqobatbardosh darajada barqaror saqlab turish masalasi alohida e‘tiborga molikdir. Shu bilan birga, davlat tomonidan olib borilayotgan investitsiya siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, biznes va investitsiya muhitini sezilarli darajada yaxshilash, ayniqsa, turizm sohasini milliy iqtisodiyotning ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

2. Investitsiya faoliyatini boshqarish turistik korxonaning umumiy iqtisodiy tizimining ajralmas bir qismi bo‘lib, o‘ziga xos maqsadlar va tamoyillarga asoslanadi va belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu faoliyat ishlab chiqarishni kengaytirish, texnologiyalarni yangilash, foyda olish va kapitalni oshirish kabi maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan investitsiya boshqaruvi turistik korxonaning boshqaruv tizimida mustaqil va muhim bo‘limni tashkil etadi.

3. 2014–2023-yillar davrida O‘zbekiston bo‘yicha turizm industriyasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi hamda asosiy kapitalga investitsiyalar bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘zgarishi tahlil qilinib, bu boradagi tendensiyalar chuqur o‘rganildi va baholandi.

4. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish maqsadida, sohaning ijobiy va salbiy jihatlarini,

rivojlanish uchun mavjud imkoniyatlarni hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash uchun SWOT tahlili o'tkazildi. Mamlakatimizda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish bo'yicha olib borilayotgan tarkibiy islohotlar hamda sohaga tegishli mavjud shart-sharoitlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud iqtisodiy, institutsional va infratuzilmaviy imkoniyatlar darajasi potentsial xatarlar va cheklovlar darajasidan ancha ustun turadi.

5. Tadqiqot jarayonida respublikamizning uchta shahar hududi (Farg'ona, Namangan va Toshkent shaharlari) da tanlov asosida 120 nafar investitsiya faoliyatining ishtirokchilari (75 nafar yuridik shaxslar, 45 nafar jismoniy shaxslar) orasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma o'tkazishdan asosiy maqsad – yuqorida biz tomonimizdan taklif etilayotgan hududning turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarish samaradorligi bo'yicha umumlashgan ko'rsatkichini aniqlash formulasidagi vazn koeffitsiyenti qiymatini aniqlashdan iborat.

6. Turizm sohasida investitsiyalar samaradorligini har tomonlama baholashda iqtisodiy-matematik modellarga va raqamli tahlilga asoslangan boshqaruv tizimlarini joriy qilish muhim strategik vazifalardan biridir. Shu bilan birga, mamlakat va hududlar miqyosida investitsiya faoliyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish hamda ustuvor investitsiya yo'nalishlarini aniqlash zamonaviy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi.

7. Yangi O'zbekistonni qurish jarayonida turizm sohasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Keng qamrovli islohotlar doirasida ushbu sohaga innovatsion yondashuvlar asosida yondashish, investitsiya faoliyatini tizimli va samarali takomillashtirish, shuningdek, turizmni milliy iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan istiqbolli yo'nalishiga aylantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

8. Turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmini natijaviy omil sifatida belgilab, unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarini soha mutaxassislarining yetakchi ekspertlari ishtirokida o'tkazilgan ekspert tahlili asosida X_1 – kirishga oid turizm iste'moli hajmi, X_2 – turizm sohasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, X_3 – turizm sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat, X_4 – turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni kabi ko'rsatkichlar ajratib olinib korrelyatsion-regression tahlil amalga oshirildi.

9. EvIEWS10 dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2025-2030-yillarda turizm industriyasida kiritilgan investitsiyalar hajmi o'zgarishining istiqboldagi ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay modellar yaratildi. Korrelyatsion-regression tahlil asosida aniqlangan modeldagi endogen omil uchun Fisher mezon qiymati 9.96 ga teng bo'lib, uning ahamiyati 0.008799 ga, model sifati dasturiy paket vositasida Akiake axborot mezon (2.308745), Shvars mezon (2.489607) va Xannan-Kuin mezon (2.194737), Darbin-Uotson (DW) mezon 2,72 ga teng ekanligi hisoblash mezonlari asosida aniqlandi.

10. Turizm sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy baholash mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor ahamiyatga ega. Innovatsion moliyaviy vositalar, raqamli texnologiyalar va xavf-xatarlarni

boshqarish strategiyalarini joriy etish orqali turizmning barqaror o'sishini ta'minlash mumkin. Bunday yondashuvlar nafaqat investitsiyalarni jalb etishni yengillashtiradi, balki sohaning raqobatbardoshligini oshiradi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

11. Turizm sohasida izchil va barqaror o'sishni ta'minlash uchun turistik korxonalarda investitsiya faoliyatini strategik yondashuvlar asosida tashkil etish va uni zamonaviy talablarga mos ravishda uzluksiz takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi, balki investitsiya mablag'larining to'g'ri yo'naltirilishini ta'minlab, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va bozor sharoitlarida ustunlikka erishish imkonini ham yaratadi. Shu sababli, investitsion boshqaruv mexanizmlarini izchil takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АРЗИМАТОВ БОБИРМИРЗО ЗОКИРЖОН УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЯМИ В СФЕРЕ
ТУРИЗМА**

**08.00.17 – Туризм и гостиничное дело
08.00.13 - Менеджмент**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ташкент– 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам
зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за № B2024.2.PhD/Iqt2043

Диссертация выполнена в Ферганском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме))
размещен на веб-странице Научного совета (www.idiu.uz) и информационно-образовательного
портала «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: Мирзаев Абдуллажон Топилович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Халилов Сирожиддин Шерали угли
доктор экономических наук, профессор

Мамаюсупова Диловархон Бегматовна
доктор философии по экономическим наукам, доцент

Ведущая организация: Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится «5» 11 2025 года в 11⁰⁰ часов на заседании разового
научного совета на основе научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 при Ташкентском
государственном экономическом университете. Адрес: 100066, город Ташкент, улица И.Каримова,
дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-01-49. e-mail: info@tsue.uz


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского
государственного экономического университета (зарегистрирован по номером). Адрес: 100066,
город Ташкент, улица И.Каримова, дом 49. Тел: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-01-49. e-mail:
info@tsue.uz

Автореферат диссертации разослан «15» 10 2025 года
(протокол реестра № 88 от «15» 10 2025 года)




С.М. Мехмонов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор


У.В. Гафуров
Секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор


А.А. Эштаев
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации.

Совершенствование организационно-экономических механизмов управления инвестициями в сфере туризма в условиях мировой экономики, прежде всего, направлено на обеспечение устойчивого развития отрасли за счёт целевого и эффективного распределения инвестиционных потоков, стимулирования финансирования инфраструктурных проектов и укрепления сотрудничества между государственным и частным секторами. Эти механизмы способствуют развитию туристической инфраструктуры, повышению качества туристских услуг и освоению новых направлений, что, в свою очередь, способствует привлечению прямых инвестиций в национальную экономику. Повышение прозрачности инвестиционных процессов, совершенствование систем мониторинга и оценки рисков обеспечивают более рациональное использование ресурсов, формируя основу для увеличения вклада туризма в ВВП и создания новых рабочих мест. Согласно данным Всемирной туристской организации (ЮНВТО), объём экспорта международного туризма в 2024 году ожидается на уровне 1,8 трлн долларов США, что приближается к уровню допандемического 2019 года. В 2023 году доходы от туризма составили около 3% мирового ВВП». ¹ Такая динамика ещё раз подтверждает стратегическую значимость туризма в мировой экономике и его ключевую роль в обеспечении устойчивого развития.

В мировой научной практике приоритетными направлениями исследований в области совершенствования организационно-экономических механизмов управления инвестициями в туризм являются: стимулирование прямых инвестиций в туристическую инфраструктуру; широкое внедрение моделей государственно-частного партнёрства; совершенствование системы оценки инвестиционного климата; автоматизация проектного управления на базе цифровых платформ. Особое внимание в научных исследованиях уделяется минимизации инвестиционных рисков и совершенствованию методов прогнозирования социально-экономической эффективности при реализации инвестиционных проектов в туристической сфере. Также разрабатываются эффективные модели инвестиционной политики, оказывающие влияние на региональное развитие. Указанные направления ориентированы на обеспечение стратегического управления инвестиционными процессами в сфере туризма, а также на повышение её глобальной конкурентоспособности.

В условиях «Нового Узбекистана» обеспечение экономической эффективности туристической отрасли за счёт функциональной и структурной реорганизации, привлечения инвестиций и увеличения доли добавленной стоимости рассматривается как одна из приоритетных задач государственной политики. В этой связи реализуется ряд реформ, направленных на

¹<https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>

диверсификацию видов туристических услуг и повышение уровня конкурентоспособности страны на мировом туристическом рынке. С целью достижения поставленных задач в стране разработан комплекс стратегических программ. В частности, в Стратегии «Узбекистан – 2030» определены ключевые приоритеты, такие как освоение инвестиций в объёме 250 млрд долларов, реализация инвестиционных проектов на основе международного сотрудничества и государственно-частного партнёрства, а также повышение инвестиционной привлекательности регионов. Кроме того, планируется активное внедрение современных инвестиционных инструментов в сферу туризма, улучшение инфраструктурных условий для иностранных инвесторов, расширение деятельности акционерных и венчурных фондов, а также улучшение инвестиционного климата за счёт роста объёмов портфельных инвестиций. Особое значение приобретает разработка целевых программ и стратегических направлений развития отрасли, а также обеспечение их эффективной реализации.

Указы Президента Республики Узбекистан № УП-9 от 12 января 2024 года «О мерах по значительному увеличению потока иностранных туристов в республику и дальнейшему активизации внутреннего туризма», № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-5611 от 5 января 2019 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан», № ПП-20 от 12 января 2024 года «О мерах по развитию инфраструктуры безбарьерного туризма и его стимулированию в Республике Узбекистан», № ПП-135 от 26 апреля 2023 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристского потенциала республики, а также дальнейшему увеличению количества местных и иностранных туристов». Данное диссертационное исследование в определенной мере послужит реализации задач, обозначенных в постановлениях № ПП-238 от 27 июля 2023 года «О мерах по дальнейшему ускорению реформ и эффективной организации системы государственного управления в сфере туризма», № ПП-232 от 30 апреля 2022 года «О дополнительных мерах по диверсификации услуг внутреннего туризма» и другие нормативные правовые документы в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан — I: «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. За рубежом проведен ряд научно-исследовательских работ, направленных на совершенствование организационно-экономических механизмов управления инвестициями в сфере туризма. В частности, особое значение имеют труды таких зарубежных ученых, как М.Мескон, Ю.Шарп, Й.Альтман, Э.Хотчкисс, Р.Макконнелл, Л.Брю, А.Кульман, Р.Дорнбуш, Р.Шмалензи, А.М.Бенур, Н.Эванс,

Д.Кэмпбелл, Г.Стоунхаус, С.Ю.Ли, Дж.Канг, А.Атияман.² Исследования этих ученых в определенной мере теоретически и методологически изучили теоретико-методологические аспекты инвестиционных процессов в сфере инвестиций, туризма, совершенствования механизмов управления деятельностью.

Процессы развития туризма и эффективного управления инвестициями в регионах Содружества Независимых Государств (СНГ) подробно изучались такими учеными, как С.А.Нешиной, В.В.Бочарев, Д.Г.Газибеков, М.С.Ангелиди, В.М.Чиненова, В.П.Попков, В.П.Семенов, Л.Л.Игонина, В.В.Чайников, Д.Г.Лапин, Р.М. Иванова, С.М.Хашин, А.Е.Сафронов, Н.С.Мартышенко, Ю.Кафиев, В.Сидоров, А.В. Земцов, В.Б.Досковский, Г.Л.Арнаутов, С.А.Степанова.³ В данных исследованиях ученые СНГ проанализировали процесс управления инвестициями в сфере туризма и оценили ожидания относительно результатов управления инвестициями в секторе, а также сосредоточили внимание на совершенствовании методов финансовой оценки инвестиционных проектов.

Развитие сферы туризма в регионах Узбекистана, включая туристическую инфраструктуру, статистический анализ, совершенствование механизмов

